



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

O'zbekistonda non narxi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili *(2026-yil aprel)*

QISQA XULOSA

So'nggi yillarda O'zbekistonda bug'doy, bug'doy uni va non mahsulotlari narxlarining shakllanishi dinamikasi, unga ta'sir ko'rsatayotgan ichki va tashqi omillar, importga bog'liqlik hamda tuzilmaviy muammolar borasidagi o'rganishlar quyidagi xulosalarni taqdim etdi. Xususan,

1. Narx dinamikasi. 2020-2026-yilning mart oyiga qadar birinchi navli undan tayyorlangan non narxi 79,4 foizga, oliy navli non narxi esa 55,9 foizga oshgan. Ushbu o'sishning asosiy qismi 2022-yilgi erkinlashtirish natijasida narxlarning bozor sharoitiga moslashuvi bilan izohlanadi.

2026-yil 1-aprel holatiga O'zbekistonda birinchi navli un noni Qozog'istonga nisbatan 9,5 foizga qimmat, Rossiyaga nisbatan esa 65,5 foizga arzon. Shu bilan birga, mahalliy bug'doy narxi jahon bozorlariga nisbatan ancha yuqori shakllangan (*AQSHga nisbatan +17,8 foiz, Rossiyaga +78,6 foiz, Qozog'istonga +80,6 foiz*).

2. Ishlab chiqarish va importga bog'liqlik. G'alla ekin maydonlari 8,1 foizga qisqargan, bug'doy ishlab chiqarish hajmi esa muayyan darajada o'sgan. Ichki talabning taklif sur'atidan tezroq ortgani sababli import 42,9 foizga, ya'ni 2,8 mln tonnadan 4,0 mln tonnagacha oshgan. Bug'doy importining 99,5 foizi va un importining 93,9 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelishi bir mamlakatga yuqori darajadagi bog'liqlikdan dalolat beradi.

3. Tashqi xatarlar. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinlik natijasida mineral o'g'itlar narxlari taxminan 23 foizga, karbamid narxi esa 35 foizgacha oshgan. O'zbekistonning bevosita ta'sirlanishi cheklangan bo'lsa-da, Qozog'iston orqali bilvosita narx ta'siri xavfi saqlanib qolmoqda.

4. Tuzilmaviy muammolar. Suv resurslarining taqchilligi (*Amudaryodan O'zbekistonga keladigan suv hajmining 2030-yilgacha 29 foizgacha qisqarishi prognozi*), past hosildorlik (*4,5-5,3 t/ga, rivojlangan mamlakatlardagi 7-8 t/ga darajasiga nisbatan*), eskirgan agrotexnika va importga kuchli bog'liqlik uzoq muddatda ichki narxlarga oshiruvchi bosimlarni vujudga keltirishi mumkin.

Takliflar

1. Urug'chilikni xalqaro standartlarga moslashtirish – ISTA va ISF kabi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish orqali urug' sifatini yaxshilash va hosildorlikni 5-10 foizga oshirish.

2. Suv tejavchi agrotexnologiyalarni joriy etish – Kanada tajribasi asosida “no-till” usulini pilot loyihalar orqali bosqichma-bosqich tatbiq etish natijasida operatsion xarajatlarni 20-30 foizga kamaytirish va quruq hududlarda hosildorlikni 10-15 foizga oshirish.

3. Dehqonchilik texnologiyalarini tatbiq etish – GPS, sensorlar va dronlarga asoslangan texnologiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda fermerlar malakasini oshirish orqali joriy etish (*Germaniya tajribasi hosildorlikni 7-8 t/ga gacha oshirish imkonini bermoqda*).

4. Import manbalarini diversifikatsiya qilish va strategik zaxiralar tizimini kuchaytirish – muqobil tashqi yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va ichki bozorda yetarli darajadagi zaxiralarni shakllantirish orqali bir mamlakatga yuqori darajadagi bog'liqlikni kamaytirish.

Qisqa muddatda narx shakllanishiga tashqi narxlar, import xarajatlari va geosiyosiy xatarlar hal qiluvchi ta'sirga ega bo'lsa, o'rta va uzoq muddatda suv taqchilligi, importga bog'liqlik, past hosildorlik hamda texnologik rivojlanishning past darajadaliigi kabi tarkibiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, bozorda barqarorlikni ta'minlash uchun qisqa muddatli narx shoklarini yumshatish choralari bilan bir qatorda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni izchil amalga oshirish talab etiladi.

Bug'doy uni va non narxлари o'zgarishi bo'yicha tahliliy MA'LUMOT


I. Ichki bozorda narxlar shakllanishi

O'zbekistonda bug'doy, un va non mahsulotlari narxlarining shakllanishi ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari, importga bog'liqlik, tashqi bozordagi narxlar dinamikasi hamda davlat tomonidan qo'llanilgan tartibga solish mexanizmlari ta'sirida yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, 2020-2026-yilning mart oyiga qadar mazkur bozorda kuzatilgan o'zgarishlar ichki va tashqi omillarning bir vaqtda ta'sir qilganini ko'rsatadi.


Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2026-yilning mart oyiga qadar yig'ilgan inflyatsiya 79,2 foizni tashkil etgan bo'lib, shu davrda birinchi navli bug'doy unidan tayyorlangan non narxi 79,4 foizga, oliy navli bug'doy unidan tayyorlangan non narxi esa 55,9 foizga oshgan. Biroq ushbu o'sish butun davr bo'yicha bir xil sur'atda kechmagan.

Xususan, 2022-yilgacha qolipli non narxлари davlat tomonidan tartibga solib kelingani sababli, mazkur mahsulot narxlarining o'sish sur'ati nisbatan past bo'lgan. 2022-yil iyun oyida birinchi navli un va qolipli non narxлари erkinlashtirilgandan so'ng, yil yakuniga qadar ushbu segmentda narxlar 54,8 foizga oshgan. Bu esa avval ma'muriy tarzda cheklab turilgan narxların bozor sharoitiga moslashishi bilan izohlanadi (1 va 2-rasmlar).

1-rasm. 2020-2026-yillarda umumiy inflyatsiya va bug'doy uni narxлари yillik o'zgarishi, foizda



2-rasm. 2020-2026-yillarda non mahsulotlari narxлари yillik o'zgarishi, foizda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi.

Shu bilan birga, 2020-2021-yillarda jahon bozorida bug'doy va un narxlari qimmatlashgan bo'lsa-da, oliy navli non narxi ichki bozorda nisbatan barqaror saqlangan. 2022-yilda sohaning erkinlashtirilishi ta'sirida ushbu mahsulot narxlarida ham sezilarli to'g'rilanish kuzatilib, yillik o'sish 25,8 foizni tashkil etgan.

Mazkur davrda birinchi navli va oliy navli bug'doy uni narxlari ham oshgan bo'lib, ularning har ikkalasi bo'yicha o'rtacha yillik o'sish 30,4 foizni tashkil etgan. Natijada, kuzatuv davri yakuniga kelib, birinchi navli un narxi 6 842 so'mga, oliy navli un narxi esa 8 920 so'mga yetgan.

2023-2026-yillarda esa jahon bozorida bug'doy va un narxlarining pasayish tendensiyasi kuzatilib, bu mahalliy un va non narxlarining nisbatan barqaror shakllanishiga xizmat qilgan.

II. Tashqi savdo narxlari va xalqaro taqqoslash

2020-yilda 1 tonna bug'doyning o'rtacha import narxi 198 dollarni, bug'doy unining o'rtacha import narxi esa 252 dollarni tashkil etgan. 2020-2022-yillarda pandemiyadan keyingi ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, transport xarajatlarining oshishi va geosiyosiy omillar ta'sirida bug'doy import narxi 279 dollargacha, bug'doy unining import narxi esa 331 dollargacha oshgan. Shu bilan birga, Qozog'istonda eksport cheklovlarining joriy qilinishi mintaqaviy taklifni qisqartirib, narxlarga qo'shimcha bosimlarni vujudga keltirgan.

2023-yildan boshlab bug'doy narxlarida pasayish kuzatilgan. Bunga global taklif hajmlarining tiklanishi ta'sir ko'rsatgan. Biroq bug'doy uni narxlari qayta ishlash va energiya xarajatlari sababli nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan.

2024-2025-yillarda bug'doy narxlarida pasayish davom etgan bo'lsa-da (*bug'doy narxi mos ravishda 190 va 185 dollar*), bug'doy uni import narxi 2024-yilda 323 dollargacha ko'tarilib, 2025-yilda 294 dollarga tushgan holda yuqori darajada saqlangan.

Ma'lumot uchun, joriy yilning mart oyiga qadar bug'doy import narxi 199,9 dollarga bug'doy uni import narxi esa 309,5 dollarga teng bo'lgan.

Eksport narxlarida ham shunga o'xshash dinamika kuzatilgan. 2020-yilda 1 tonna bug'doyning o'rtacha eksport narxi 204 dollar, bug'doy uni narxi esa 296 dollar bo'lgan. 2022-yilda narxlar sezilarli darajada qimmatlashib, mos ravishda 323 dollar va 346 dollarga yetgan. Keyingi yillarda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, qayta ishlangan mahsulotlar bo'yicha narxlar nisbatan yuqori saqlanib qolgan.

Ma'lumot uchun, joriy yilning mart oyiga qadar bug'doy eksport narxi 218,3 dollarga bug'doy uni eksport narxi esa 290,9 dollarga teng bo'lgan.

III. Non narxlarining qo'shni mamlakatlar bilan taqqoslash

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil mart oyida O'zbekistonda birinchi navli undan tayyorlanadigan 1 kg nonning o'rtacha chakana narxi 6 284 so'mni tashkil etgan.


Bu ko'rsatkich Qozog'istonga nisbatan 9,5 foizga yuqori, Rossiya va Qirg'izistonga nisbatan esa mos ravishda 65,5 va 38,1 foizga past bo'lgan. Ushbu taqqoslash O'zbekistonda non narxi mintaqada o'rtacha darajada shakllanganini, biroq bug'doy va un narxlari orqali tashqi bosimlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi (3-rasm).

2022-yilda geosiyosiy noaniqliklar ta'sirida shakllangan yuqori narxlar 2023-yilda jahon bozorida Rossiya-Ukraina mojarosining ta'siri qisman so'nishi va taklif tiklanishi hisobiga pasaya boshlagan.

Biroq, 2024-yildan boshlab O'zbekistonda narxlar jahon bozorlaridagi pasayish sur'atlariga nisbatan sekinroq shakllangan hamda nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan. Shu bilan birga, 2024–2025-yillarda jahon miqyosida bug'doy narxlari Rossiya va O'zbekistonda o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa, Qozog'iston va AQSHda pasayish dinamikasi kuzatilgan.

2026-yilning mart oyi yakuniga kelib mamlakatimizda bug'doy narxi AQSHga nisbatan 17,8 foizga, Rossiyaga nisbatan 78,6 foizga va Qozog'istonga nisbatan 80,5 foizga yuqori shakllangan (4-rasm).


3-rasm. O'zbekiston va qo'shni davlatlarda birinchi navli undan tayyorlangan non narxi dinamikasi¹, 1 kg/so'm ekvivalentida




Manba: Xorijiy mamlakatlar statistika saytlari va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

¹ Rossiyada 2022-yildan so'ng oliy navli undan tayyorlangan nonlar bilan birinchi navli undan tayyorlangan nonlar kategoriyalari birlashtirilib, bir xil narxlarda hisoblanish boshlandi.

4-rasm. Jahon bozori va O‘zbekistonda bug‘doy narxlari dinamikasi, 1 tonna uchun AQSh dollari ekvivalentida



5-rasm. Jahon bozori va O‘zbekistonda bug‘doy uni narxlari dinamikasi, 1 tonna uchun AQSh dollari ekvivalentida



Manba: Xorijiy mamlakatlar statistika agentligi va Milliy statistika qo‘mitasi va www.usda.gov va www.zerno.ru va www.worldbank.org sayti ma‘lumotlari.

Shu bilan birga, 2022-yildan boshlab qo‘shni davlatlarda bug‘doy uni narxlarida o‘svuchi trend saqlangan bir paytda, AQShda aksincha pasayish tendensiyasi kuzatilgan. O‘zbekistonda esa 2023-2024-yillarda narxlar nisbatan barqarorlashgan, 2025-yilda AQShdan boshqa barcha mamlakatlarda o‘shish qayd etildi. 2026-yilning mart oyi yakuniga kelib esa biroz oshgan holda xalqaro bozorlarga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan (5-rasm).

IV. Iste‘mol talabi

Non mahsulotlari bozorida talab dinamikasini baholashda aholi daromadlari muhim omil hisoblanadi. Engel qonuniga ko‘ra, daromadlar oshishi bilan non kabi asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga yo‘naltiriladigan xarajatlar ulushi kamayadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, past daromadli mamlakatlarda aholi jon boshiga non iste‘moli 80-100 kg, o‘rta daromadli mamlakatlarda 40-50 kg, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 20-30 kg atrofida shakllanadi.

Ekonometrik baholashlarga ko‘ra, aholi real daromadlarining 10 foizga oshishi non iste‘moli hajmining taxminan 1-3 foizga qisqarishiga olib keladi. Bu non mahsulotlarining aholi farovonligi oshgan sari iste‘mol savatidagi nisbiy ahamiyati pasayishini anglatadi. Shu bilan birga, non aholining kam ta‘minlangan qatlamlari uchun strategik ahamiyatga ega mahsulot bo‘lib qolmoqda. Shu bois, uning narxi ijtimoiy jihatdan yuqori sezuvchanlikka ega hisoblanadi.

2020-2025-yillarda O'zbekistonda aholi o'rtacha daromadlari 56,5 foizga oshgan, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 7,8 foizni tashkil etgan. Daromadlar o'sishi fonida iste'mol tarkibida ham o'zgarish kuzatilib, aholi nisbatan qimmatroq va oqsilga boy mahsulotlarga, jumladan, go'sht, sut mahsulotlari va mevalar iste'moliga ko'proq o'ta boshlagan.

Shu bilan birga, so'nggi olti yil davomida respublikada bug'doy iste'moli 17,9 foizga oshgan bo'lsa, bug'doy uni iste'moli 10,3 foizga kamaygan. Mazkur holat asosan aholi tomonidan tayyor non mahsulotlari iste'molining ortishi, shuningdek, bug'doyni qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ulushining kengayishi bilan izohlanadi. 2025-yilda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 10,5 mln tonna va 2,6 mln tonnani tashkil etgan. Joriy yilda bug'doy uni iste'molining 2,8 mln tonna atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bu holat aholi talabida tayyor mahsulotlar va qayta ishlangan oziq-ovqat turlariga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat beradi.

V. Ishlab chiqarish, import va eksport dinamikasi

Ichki taklif tomonidan qaralganda, 2020-2024-yillarda respublika bo'yicha g'alla ekin maydonlari qisqarish tendensiyasida shakllangan. Xususan, 2020-yilda 1,36 mln hektarni tashkil etgan maydonlar 2023-yilga kelib 1,25 mln hektargacha, ya'ni 8,1 foizga qisqargan. 2024-yilda maydonlar 1,26 mln hektarni tashkil etib, ma'lum darajada barqarorlashuv kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy trend pasayish yo'nalishida saqlanib qolgan.

Shu bilan bir vaqtda, bug'doy yetishtirish hajmida muayyan o'sish kuzatilgan. 2020-yilda 6 157 ming tonnani tashkil etgan ishlab chiqarish hajmi 2024-yilga kelib 6 729 ming tonnaga yetgan. Bu mahalliy ishlab chiqarish hajmi oshganini ko'rsatsa-da, ichki talab va qayta ishlash ehtiyoji bu o'sishdan tezroq sur'atlarda shakllangan.

Bug'doy unining ishlab chiqarish hajmida esa 2023-yilda 14 foizlik pasayish kuzatilgan, 2024-2025-yillarda esa tiklanish va mo'tadil o'sish qayd etilgan. Biroq ushbu o'sish ichki bozor ehtiyojlarini to'liq qoplash uchun yetarli bo'lmagan.

Ma'lumot uchun, joriy yilning mart oyiga qadar bug'doy eksport hajmi 19,9 ming tonnani, bug'doy uni eksport hajmi 363,9 ming tonnani tashkil etgan (o'tgan yilning mos davriga nisbatan mos ravishda 50 va 4 foizga o'sgan).

Mahalliy ishlab chiqarish bilan bir qatorda importning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. 2020-2025-yillarda mahalliy bug'doy ishlab chiqarish hajmi 13 foizga oshgan bo'lsa, import hajmi 42,9 foizga, ya'ni 2,8 mln tonnadan 4 mln tonnagacha ko'paygan.

Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 2,8 mln tonna bug'doy import qilingan bo'lib, uning 99,2 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgan. 2023-yilda import 21,4 foizga o'sib 3,4 mln tonnaga yetgan, 2024-yilda esa 8,8 foizga kamayib 3,1 mln tonnani tashkil etgan. 2025-yil yakuniga kelib bug'doy importi yana o'sib, 3,9 mln tonnaga yetgan va uning 99,8 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgan.

Bug'doy uni importi ham yuqori darajada saqlangan. 2022-yilda 427,6 ming tonna un import qilingan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 513,8 ming tonnaga yetgan. 2024-yilda import 470,9 ming tonna, 2025-yilda esa 422,6 ming tonnani tashkil etgan.

Un importi tarkibida ham asosiy ulush Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgan. 2022-2025-yillarda bug'doy importining 99,5 foizi, bug'doy uni importining esa 93,9 foizi aynan Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgani mamlakat ta'minotining deyarli bir mamlakatga bog'langanini ko'rsatadi.

Ma'lumot uchun, joriy yilning mart oyiga qadar bug'doy import hajmi 1,5 mln tonnani, bug'doy uni import hajmi 97,1 ming tonnani tashkil etgan (bug'doy importi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 59,9 foizga o'sgan, bug'doy uni importi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 foizga pasaygan).

Ichki bozordagi iste'mol talabining mahalliy ishlab chiqarish sur'atlaridan tezroq o'sishi bir nechta omillar bilan izohlanadi. Xususan, aholi sonining o'rtacha yillik 2 foiz atrofida o'sishi don va un mahsulotlariga bo'lgan umumiy talabni kengaytirmoqda. Shuningdek, chorvachilik va parrandachilik sohasida yem-xashakka bo'lgan talab ortib borayotgani don mahsulotlariga qo'shimcha bosim yaratmoqda.

Bundan tashqari, mahalliy bug'doy asosan yumshoq navlardan iborat bo'lgani sababli, yuqori sifatli un va makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda import bug'doyiga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Yana bir muhim omillardan, import qilingan donning bir qismi ichki qayta ishlashdan so'ng qo'shni davlatlarga eksport qilinmoqda.

Eksport tarkibida ham muhim tendensiya kuzatilmoqda. 2020-2025-yillarda bug'doy eksporti nisbatan kichik hajmlarda shakllangan bo'lib, 2025-yilda 37,9 ming tonnani tashkil etgan. Ushbu eksport asosan Afg'oniston bozoriga yo'naltirilgan. Bug'doy uni eksporti esa ancha yuqori sur'atlarda o'sib, 2025-yilga kelib 1,6 mln tonnaga yetgan.

Bu holat eksport tarkibida xom ashyoga nisbatan qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

VI. Asosiy muammo va cheklovlar

O'zbekistonda bug'doy, un va non bozorida narxlar barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muammo va cheklovlarni tuzilmaviy (resurs va ishlab chiqarish imkoniyatlari) hamda tashqi (geosiyosiy va savdo bog'liqligi) omillarga ajratish mumkin.

Tuzilmaviy muammolar

Suv taqchilligi. Bug'doy bozoridagi asosiy tizimli muammolardan biri suv resurslari tanqisligidir. Qishloq xo'jaligida bug'doy yetishtirish uchun har gektar maydonga 3-5 ming kub metr suv sarflanadi. Shuningdek, aholi sonining o'sishi bilan maishiy ehtiyojlar uchun suv talabi taxminan 30 foizga, ya'ni 2,3 mlrd kub metrdan 3,0 mlrd kub metrgacha oshishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi va Afg'onistonda Qo'shtepa kanali ishga tushirilishi natijasida Amudaryodan O'zbekistonga keladigan suv hajmi 2028-yilgacha 19 foizga, 2030-yilgacha esa 29 foizgacha qisqarishi prognoz qilinmoqda.

Yuqoridagi omillar bug'doy yetishtirish hajmiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi va ichki narxlarga oshiruvchi bosimlarni vujudga keltirishi mumkin.

Past hosildorlik. Xususan, O'zbekistonda bug'doyning o'rtacha hosildorligi 2020-2024-yillarda 4,5-5,3 t/ga atrofida bo'lib, rivojlangan mamlakatlardagi 7-8 t/ga darajasidan ancha past. Bu ko'rsatkich mamlakatning o'z-o'zini ta'minlashi uchun zarur bo'lgan 6,2 t/ga darajasidan ham past hisoblanadi.

Urug'chilik tizimidagi cheklovlar. Yuqori hosilli navlarning yetarli joriy etilmasligi va mahalliy urug' sifatining xalqaro standartlardan past bo'lishi sohaning uzoq muddatli samaradorligini cheklaydi.

Texnologik yetishmovchilik. Tomchilatib sug'orish, aniq dehqonchilik va raqamli monitoring tizimlari fermer xo'jaliklarining aksariyat qismida yetarlicha joriy etilmagan. Qishloq xo'jaligi texnikasining eskirgani ishlab chiqarish tannarxini oshirmoqda.


Tashqi xatarlar

Importga yuqori bog'liqlik. Mamlakatda bug'doy iste'molining salmoqli qismi import hisobiga qoplanadi. Bug'doy importining 99,5 foizi va un importining 93,9 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi.

Qozog'istonda eksport cheklovlari, hosil tushishi yoki logistika uzilishlari yuzaga kelgan taqdirda ichki narxlarga tezkor ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinlik. Mintaqadagi harbiy keskinlik oqibatida mineral o'g'itlar narxlari taxminan 23 foizga oshgan. Hormuz bo'g'ozini orqali jahon neft va gaz ta'minotining qariyb 20 foizi tashilishi sababli, mintaqaviy uzilishlar o'g'it va energiya narxlari orqali don va oziq-ovqat bozorlariga bilvosita bosim o'tkazmoqda.

6-rasm. Karbamid va brent markali neft narxlari dinamikasi, 1 AQSh dollari/tonna ekvivalentida



Manba: www.worldbank.org sayti ma'lumotlari.

Eron, Qatar, Saudiya Arabistoni va Ummon karbamid va ammiak eksport qiluvchi yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, azotli o'g'itlar bo'yicha neft bozoridagi kabi muvofiqlashtirilgan strategik zaxiralar mavjud emas, shuning uchun ta'minotdagi uzilishlarni yumshatish nisbatan murakkab hisoblanadi.

Qatarda gaz obyektlariga qilingan hujumlardan so'ng gaz ishlab chiqarishni to'xtatish va yirik karbamid zavodlarida faoliyatning qisqarishi kuzatilgan. Hindistonda gaz ta'minoti qisqarishi oqibatida bir qator karbamid zavodlari ishlab chiqarishni kamaytirgan, Bangladeshda esa o'g'it zavodlarining aksar qismi faoliyatini to'xtatgan.

Mart oyida global karbamid eksporti Xitoy ishtirokisiz 3,5 mln tonna o'rniga 1,5 mln tonnagacha qisqarishi kutilmoqda. Yaqin Sharqda karbamid eksport narxlari mojaro boshlanganidan keyin qariyb 35 foizga oshib, 500 dollardan 673 dollargacha yetgan. Tahlilchilar fikriga ko'ra, agar mojaro uzoq davom etsa, azotli o'g'itlar, xususan, karbamid narxi yana keskin oshishi mumkin (6-rasm).

O'zbekistonda yiliga 3 mln tonnadan ortiq mineral o'g'it ishlab chiqarilgani sababli bevosita ta'sir nisbatan cheklangan. Biroq Qozog'iston ishlab chiqarish zanjiri orqali narx ta'siri O'zbekiston ichki bozoriga bilvosita yetib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, global o'g'it va energiya narxlarining bir necha oy davomida yuqori darajada saqlanishi 2026-yilda nafaqat un mahsulotlari, balki barcha dala ekinlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi orqali ichki narxlarga qo'shimcha bosim ko'rsatishi ehtimollari yuqori qolmoqda.

VII. Takliflar

Bug‘doy, un va non bozorida barqarorlikni ta‘minlash va yuqorida ko‘rsatilgan xatarlarni yumshatish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish tavsiya etiladi.

1. Urug‘chilik tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish. ISTA va ISF kabi xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish, yuqori hosilli navlarni joriy etish va xususiy seleksiyaga investitsiyalarni jalb etish. Kutilayotgan natija — hosildorlikni 5-10 foizga oshirish va eksportdagi texnik to‘siqlarni kamaytirish.

2. Suv tejevchi agrotexnologiyalarni joriy etish. Kanada tajribasi asosida “no-till” usulini pilot loyihalar orqali bosqichma-bosqich tatbiq etish va tomchilatib sug‘orish tizimini kengaytirish. Kutilayotgan natija — operatsion xarajatlarni 20-30 foizga kamaytirish, quruq hududlarda hosildorlikni 10-15 foizga oshirish.

3. Aniq dehqonchilik texnologiyalarini tatbiq etish. GPS, sensorlar va dronlarga asoslangan texnologiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi asosida joriy etish; fermerlar malakasini maqsadli oshirish va zamonaviy texnika bilan ta‘minlashni kengaytirish.

Kutilayotgan natija — resurs sarfini 15-25 foizga kamaytirish va hosildorlikni 7-8 t/ga darajasigacha oshirish.

4. Import manbalarini diversifikatsiya qilish. Qozog‘istondan tashqari muqobil tashqi yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish va logistika infratuzilmasini takomillashtirish.

Kutilayotgan natija — bitta mamlakatga yuqori darajadagi bog‘liqlikni kamaytirish, tashqi narx shoklariga qarshilik qilish qobiliyatini kuchaytirish.

5. Strategik zaxiralar tizimini kuchaytirish. Ichki bozorda bug‘doy va un bo‘yicha yetarli darajadagi zaxiralarni shakllantirish, zaxiralarni boshqarish bo‘yicha aniq reglament ishlab chiqish. Kutilayotgan natija — qisqa muddatli narx shoklarini yumshatish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash.

Qisqa muddatda narx shakllanishiga tashqi narxlar, import xarajatlari va geosiyosiy xatarlar hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatsa, o‘rta va uzoq muddatda suv taqchilligi, importga bog‘liqlik, past hosildorlik hamda texnologik yetarli emaslik kabi tarkibiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, bozorda barqarorlikni ta‘minlash uchun qisqa muddatli narx shoklarini yumshatish choralari bilan bir qatorda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni izchil amalga oshirish talab etiladi.